

“1992–1993-YILLARDA NAVOIY VILOYATIDA IJTIMOY-IQTISODIY AHVOL VA AHOLINI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI”

Parmonov Husan Shomurot o'g'li

Navoiy davlat universiteti

Tarix fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi Mustaqil izlanuvchis

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21676190>

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1992–1993-yillarda Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari arxiv hujjatlari va rasmiy me‘yoriy-huquqiy manbalar asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida viloyatda yuzaga kelgan ijtimoiy muammolar, aholini ijtimoiy himoya qilish, bandlikni ta‘minlash, kam ta‘minlangan oilalar, nogironlar, urush faxriylari, qariyalar va ko‘p bolali onalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ekologik xavfsizlik, kommunal xizmatlar, oziq-ovqat ta‘minoti hamda chekka hududlarni zarur mahsulotlar bilan ta‘minlash borasida viloyat hokimligi tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmuni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Navoiy viloyatida amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat iqtisodiy islohotlar davrida ijtimoiy barqarorlikni saqlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini himoya qilish va hududning ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim omil bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Navoiy viloyati, 1992–1993-yillar, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, ijtimoiy siyosat, aholini ijtimoiy himoya qilish, bozor iqtisodiyoti, bandlik, kam ta‘minlangan oilalar, nogironlar, nafaqaxo‘rlar, ekologik muammolar, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, byudjet xarajatlari, ijtimoiy imtiyozlar, arxiv hujjatlari.

Navoiy viloyati, ayniqsa Navoiy tumani (hozirgi Karmana) tumani shahar sanoat korxonalariga yaqinligi tufayli ekologik muvozanati mo‘tadil bo‘lmagan hududlardan biri hisoblanadi. 1992-yil 29-iyulda Navoiy tumani hokimligining “Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish borasida olib borayotgan ishlari va siyosati to‘g‘risida” gi PX-07/141-son qarorida tumandagi ekologik holatini yaxshilash, hududda istiqomat qiluvchi aholi salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va gidrometallurgiya zavodlari chiqindilari to‘planadigan havzalarni boshqa joyga ko‘chirish yoki sanitariya talablariga mos holatga keltirish masalasini hal etish zarurligi alohida ta‘kidlanadi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash maqsadida qiymati 6,5 million so‘m bo‘lgan, uzunligi 5,7 kmni tashkil etuvchi quvur qurilishini nihoyasiga yetkazish ma’sullarga topshiriq sifatida beriladi. Navoiy tumani asosan dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. 1992-yilda 80 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan. Aholining 40 foizini balog‘atga yetmagan yoshlar, 10 foizdan ortig‘ini esa nafaqaxo‘rlar tashkil etadi. Mehnatga yaroqli aholining 7 600 nafari Navoiy shahridagi sanoat korxonalarida faoliyat yuritadi. 1991-yil yakunlariga ko‘ra, tumanning jami daromadi 103,7 million so‘mni tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligida ishlayotgan har bir kishi hisobiga 3980 so‘mlik mahsulot yetishtirib, bir kishiga o‘rtacha ish haqqi 490 so‘mga to‘g‘ri kelishi arxiv hujjatlarida keltirib o‘tiladi¹.

Navoiy viloyati hokimi A.Aydarqulov xalq deputatlari viloyat Kengashining 4-sessiyasida aholi turmush farovonligi keskin pasayib ketishining oldini olish choralari asosan respublika byudjeti hisobidan ko‘rilayotganligini va bu xarajatlar aholini ijtimoiy himoya qilishga

¹ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro‘yxat, 8-yig‘majild, 14-17-varaq.

qaratilganligini ta’kidladi. Aholining kundalik oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgilangan narxlardan ko’rilgan zararni qoplash maqsadida byudjetdan 565,3 million so’m tovon puli (kompensatsiya) to’landi. Shuningdek, kam ta’minlangan oilalarning farzandlari uchun bolalar kiyim-kechaklari narxlari oshganligi munosabati bilan, shuningdek, o’qituvchilar, shifokorlar va OTM xodimlariga ko’rsatiladigan kommunal xizmatlar hamda bepul tibbiy asbob-uskunalar uchun 320 million so’m sarflandi. Bu byudjet xarajatlarining 20,3 foizini tashkil etadi². Byudjet taqchilligi va mablag’ yetishmovchiligi aniq ko’rinib turgan bir paytda, tibbiyot va xalq ta’limi sohalari uchun jihozlar sotib olish hamda binolarni ta’mirlashga mablag’ topish choralari ko’rildi va ushbu maqsadlarga barcha manbalardan 110,0 million so’m yo’naltirildi³.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Navoiy viloyatining olis hududlarini Nurota ayniqsa, Qizilqum bag’ridagi Konimex, Uchquduq, Tomdi kabi tumanlarni qishga tayyorlash strategik vazifa hisoblangan. 1992-yil 27-avgustida “Qishki davrda olis va borish qiyin bo’lgan tumanlarga oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini muddatdan oldin yetkazib berish to’g’risida” R-08/99-sonli farmoyishi⁴ cho’l aholisiga eng zarur mahsulotlarni un, yog’, shakar kabi mahsulotlari yetkazib berishni nazarda tutadi. Ta’kidlash kerakki viloyatining cho’l hududlarida ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish o’ta murakkab sharoitda kechdi.

Navoiy viloyati hokimining 1993-yil 2-fevraldagi “Viloyat ijtimoiy ta’minot boshqarmasining nafaqaxo’rlar, nogironlar, qarovchisiz yolg’iz kishilar, ko’p bolali onalarga ko’rsatayotgan yordamini takomillashtirish to’g’risida” K-01/36-qarorida byudjetdan tashqari jamg’arma hisobidan yolg’iz qariyalar, kam daromadli oilalarga moddiy yordam berish maqsadida, kiyim-kechak, oziq-ovqat, qishloq xo’jalik va xo’jalik mollari pul ko’chirish yo’li bilan sotib olishga ruxsat berish, aholidan foydalanilgan kiyim-kechak va uy-ro’zg’or buyumlarini sotib olish, ijtimoiy ta’minot boshqarmasiga talab etilgan miqdordagi meva-sabzavotlarni eng arzon narxda sotib olib, ustamasi 5% dan oshmaslik sharti bilan sotish va shu mahsulotlarni o’z omborxonalarida saqlash, viloyat ijtimoiy ta’minot boshqarmasi va uning joylardagi tashkilotlari joylashgan binolarni ta’mirlash va jihozlar sotib olish uchun 500 ming so’m mablag’ ajratilgan⁵. Xatirchi tumani hokimining “Tuman dehqonchilik sanoati uyushmasiga qarashli “Pulkan shoir” nomli bolalar va o’smirlar oromgohini viloyat ijtimoiy ta’minot boshqarmasi ixtiyoriga o’tkazish to’g’risida”gi 1992-yil 24-noyabrdagi № 328/11-K qarori asosida viloyat Urush faxriylari, nogironlari va nafaqaxo’rlar uchun sog’lomlashtirish va dam olish oromgohi tashkil etilgan⁶.

1993-yil 11-martda Navoiy viloyatining “Elektr quvvati va tabiiy gazdan foydalanishda ayrim toifadagi kishilarga qo’shimcha imtiyozlarni joriy etish to’g’risida”gi Q-01/70-son qarori qabul qilindi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o’tish, xalq iste’mol mollari narxlarining qimmatlashuvi natijasida nogironlar va aholining kam ta’minlangan qismini ijtimoiy himoyalash maqsadida aholining quyidagi toifalariga

- I-guruhdagi barcha nogironlar;
- II-guruhdagi ko’zi ojiz nogironlarga;
- bolalikdan nogiron bo’lganlar;
- qahramon onalar;

² Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro’yxat, 4-yig’majild, 21-varaq.

³ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro’yxat, 4-yig’majild, 22-varaq.

⁴ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro’yxat, 16-yig’majild, 2-varaq.

⁵ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro’yxat, 15-yig’majild, 80-varaq.

⁶ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro’yxat, 15-yig’majild, 81-varaq.

boquvchisini yo‘qotgan uch va undan ortiq ish qobiliyatiga ega bo‘lmagan farzandli oilalar; mehnat fronti qatnashchilariga 1993-yil 1-aprel boshlab elektr quvvati va tabiiy gazdan foydalanishda 50% foizli imtiyoz joriy etilgan.⁷

Navoiy viloyati hokimining 1993-yil 14-martdagi “Urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga ortopedik buyumlar sotib olish uchun bir yo‘la qo‘shimcha moddiy yordam berish to‘g‘risida”gi № Q-101/76-qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Viloyat ijtimoiy ta‘minot boshqarmasi va moliya boshqarmasi 10 kun ichida bir yo‘la moddiy yordam ko‘rsatish tartibini ishlab chiqilib 500 so‘m miqdorida qo‘shimcha moddiy yordam ko‘rsatilgan⁸.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, 1993-yilda Respublikada va shu jumladan viloyatda ish haqqi, nafaqa va stendiyalar 7 marata oshirildi. Mana shu tadbirlarni amalga oshirish uchun respublika byudjetidan 6,5 million mablag‘ olinib, sarflandi. Shuningdek viloyat hokimligi nogironlarga, qahramon onalarga, yolg‘iz keksalarga, kam daromadli oila va nafaqaxo‘rlarga imtiyozlar berish uchun 10,5 million so‘m sarflandi. Ajratilgan byudjet mablag‘laridan tashqari viloyat hokimining qarorlari va farmoyishlari asosida sog‘likni saqlash muassalari uchun 100 million so‘m, xalq maorifi muassalari uchun, 52 million so‘m, qariyalar kuni munosabati bilan 255,4 million so‘m, nogironligi bo‘lgan bolalar aravachalari uchun qo‘shimcha mablag‘lar hisobidan 1 million so‘m ajratildi⁹.

Navoiy viloyatida aholini ijtimoiy himoya qilish masalasiga doir xarajatlar 1993-yilda 866 million so‘mni tashkil etdi. O‘qituvchilar, nafaqaxo‘rlar, ulug‘ vatan urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan kishilarga kamunal xizmat haqqi 62 million, bolalarga nafaqa va tovon puli uchun 691,4 million, 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ovqat puli 11,2 million xarajat qilinadi. Bundan tashqari me‘yorlangan oziq ovqat mahsulotlari uchun, imtiyozli tushliklar, 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarga beriladigan kiyimlar uchun “Navoisavdo” va matlubot jamiyatlari sestemasi bo‘yicha respublika byudjetidan 3,2 milliard so‘m, viloyatga olib kelinayotgan bug‘doy uchun 1,5 mld, faqat non uchun 800 milion so‘mdan ortiqroq mablag‘ respublika byudjetidan sarflandi¹⁰.

Shuningdek, 1993-yil Navoiy shahrida o‘tkazilgan viloyat xalq depututlari sessiyasida ijtimoiy sohaga oid bir qator “og‘riqli” masalalar ko‘tarilgan. Xususan, Navoiy viloyatida Maktabdan tashqari muassasalarning aksariyati hali tashkil etilmagan bo‘lib, o‘quvchilarining bor-yo‘g‘i 7 foizi maktabdan tashqari muassasalarga jalb etilgan. 1992-1993-yillar davomida 30 ta bolalar bog‘chasi o‘z faoliyatini majburiy to‘xtatdi. Ayni paytda bir qancha maktablar moslashtirilgan binolarda joylashgan va ayrim maktab binolari avariya holatidaliqi, Bitiruvchilarni ish bilan ta‘minlash masalalari muammoligicha qolganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, shifoxonalarning 80 foizi kanalizatsiyaga ega emasligi, Navoiy, Konimex, Xatirchi tumanlarida, Navoiy shahrida tug‘ruqxonalar yetishmasligi, Viloyatdagi 60 foiz tibbiy muassasalar sanitariya qoidalari talabiga javob bermaydigan binolarda joylashganligi, Konimex va Nurota tumanlarida bolalar o‘limi yuqori darajadaliqi, farzand ko‘rish yoshida bo‘lgan ayollarning 56 foizida turli kasalliklar mavjudligi kabi muammolar sessiya bayonnomalarida, arxiv hujjatlarida keltiriladi¹¹. Majlisda Xalq ta‘limi oldida juda katta vazifalar turganligi, yangi, demokratik jamiyatning asoslarini biz yaratayotgan bo‘lsak, kelajak avlod uni shakllantirib, oyoqqa qo‘yishi, rivojlantirishi lozimligi maktab maorifi ishiga xuddi ana shu nuqtai nazardan e‘tiborni qaratish kerakligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va viloyat

⁷ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro‘yxat, 35-yig‘majild, 53-varaq.

⁸ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro‘yxat, 34-yig‘majild, 43-varaq.

⁹ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro‘yxat, 31-yig‘majild, 44-varaq.

¹⁰ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro‘yxat, 31-yig‘majild, 44-varaq.

¹¹ Навоий вилоят давлат архиви. 100- фонд, 1-рўйхат, 31- иш, 102-103 - варак

hokimligining qo'shma qarorini to'liq bajarish choralarini ko'rishdan, tuman va shahar hokimlari tibbiy muassasalar qurilishi va ta'mirlanishi uchun mas'ul ekanliklarini ta'kidlanadi.

1992-1993-yildarda 5700 o'rinli 5 ta maktab binosi qurilib ishga tushirilganligi, keyingi paytda iqtidorli bolalar maxsus maktab-internati, Navoiy shahrida maktab-gimnaziyalar, o'zbek-turk litseyi, texnika litseyi, Nurota, Konimex va Qiziltepa tumanlarida ta'lim muassasari qurilayotganligi, Navoiy shahridagi 11-maktab (direktor F.M. Mo'minov) “Yil maktabi – 93” Respublika ko'rik tanlovida faxrli III-o'rinni egallaganligi, 1-maktab-gimnaziyaning 4 nafar o'quvchisi Amerika Qo'shma Shtatlarida, Viloyatning 40 nafar yosh talabalari esa Turkiya va Misr Arab Respublikasi davlatlari oliygohlarida o'qiyotganligi ijobiy yutuqlari sifatida keltiriladi¹².

Oilalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyilidir. Biz davlatimizning ijtimoiy negizlarini, uning barqarorligini mustahkamlashda, jismonan baquvvat, ma'naviy jihatdan sog'lom oilalarni shakllantirishda davom etamiz.¹³ O'zbekiston hukumatining ijtimoiy himoyalash to'g'risidagi qarorlari va viloyat hokimi tomonidan qator qarorlar qabul qildi. Shularga muvofiq, 3823 nafar qahramon ona mehnat staji yo'qligidan qat'i nazar, 50 yoshga to'lgan kunidan boshlab har oyda eng kam oylik ish haqi miqdorida nafaqa tayinlandi;

1802 nafar urush nogironi va ularga tenglashtirilganlar ortopedik buyumlarni olish chog'ida 20 foizli imtiyoz berildi;

¹² Навоий вилоят давлат архиви. 100- фонд, 1-рўйхат, 31- иш, 100- варак

¹³ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997. - Б.224.